


## 2021- yilning yanvar-may oylarida Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-may oylarida Farg'ona viloyatida jami **2 165,3 mlrd.** so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **107,9 %**ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni **3 428** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **416** taga ko'paygan.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlarning soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **113,1 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **55,4 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **108,5 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **11,0 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **116,9 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **33,8 %**) o'sishidir.




**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalarini soni (birlikda)**

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.06.2020- yil	01.06.2021- yil	
	<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>3012</b>	<b>3482</b>	<b>113,8</b>
	<i>shaharlar:</i>			
	<b>Farg'ona</b>	<b>802</b>	<b>926</b>	<b>115,5</b>
	<b>Qo'qon</b>	<b>311</b>	<b>342</b>	<b>110,0</b>
	<b>Quvasoy</b>	<b>106</b>	<b>119</b>	<b>112,3</b>
	<b>Marg'ilon</b>	<b>302</b>	<b>342</b>	<b>113,2</b>
	<i>tumanlar:</i>			
	<b>Oltiariq</b>	<b>96</b>	<b>117</b>	<b>121,9</b>
	<b>Qo'shstepta</b>	<b>95</b>	<b>107</b>	<b>112,6</b>
	<b>Bag'dod</b>	<b>160</b>	<b>157</b>	<b>98,1</b>
	<b>Buvayda</b>	<b>121</b>	<b>131</b>	<b>108,3</b>
	<b>Beshariq</b>	<b>78</b>	<b>95</b>	<b>121,8</b>
	<b>Quva</b>	<b>133</b>	<b>147</b>	<b>110,5</b>
	<b>Uchko'prik</b>	<b>161</b>	<b>186</b>	<b>115,5</b>

	<b>Rishton</b>	<b>81</b>	<b>65</b>	<b>124,6</b>
	<b>So'x</b>	<b>59</b>	<b>33</b>	<b>178,8</b>
	<b>Toshloq</b>	<b>140</b>	<b>126</b>	<b>111,1</b>
	<b>O'zbekiston</b>	<b>83</b>	<b>80</b>	<b>103,8</b>
	<b>Farg'ona</b>	<b>107</b>	<b>88</b>	<b>121,6</b>
	<b>Dang'ara</b>	<b>131</b>	<b>122</b>	<b>107,4</b>
	<b>Furqat</b>	<b>77</b>	<b>66</b>	<b>116,7</b>
	<b>Yozyovon</b>	<b>81</b>	<b>67</b>	<b>120,9</b>


**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
01.06.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, %da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona (27,0 %), Marg'ilon (10,0 %) va Qo'qon (10,0 %) shaharlarda qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **162,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **125,6** %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **1,0** % punktga ko'payib, **7,5** %ni tashkil etdi.

**Yirik qurilish tashkilotlari  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




- ulushi %da
- o'sish sur'ati %da



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Marg'ilon shahrida jami qurilish ishlari hajmining **26,8 %** yoki 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **37,8 m.**, Quvasoy shahrida jami qurilish ishlari hajmining **16,6 %** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,4 m.**, va Qo'shtepa tumanida esa jami qurilish ishlari hajmining **12,4 %**, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **79,2 m.** to'g'ri keldi.


### Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-may oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **69,4 %** to'g'ri kelib, 2020 - yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan **1,2 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020 - yilning mos davriga nisbatan **107,5 %**ni tashkil etgan holda **1 503,2 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




### Qurilish ishlarining umumiyligi hajmida norasmiy sektor

2020- yil  
yanvar-may



o'sish sur'ati, %da

2021- yil  
yanvar-may



ulushi, %da

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **53,4** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2112,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,5 %** va **97,5 %**ni tashkil etdi.

### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2,5

Davlat mulki

97,5

Nodavlat mulk

2,6

97,4



2020- yil  
Yanvar-may

2021- yil  
Yanvar-may

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **61,0** %i yoki **1 320,5** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**61,0 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **147,9** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **11,2** %ni tashkil etdi.

**11,2 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **731,0** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **55,4** %ni tashkil etdi.

**55,4 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **441,6** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **33,4** %ni tashkil etdi.

**33,4 %**




## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
<b>Farg'ona viloyati*</b>	<b>2 165,3</b>	<b>107,9</b>	<b>1 320,5</b>
<i>shaharlar:</i>			
<b>Farg'ona</b>	<b>515,0</b>	<b>100,1</b>	<b>170,0</b>
<b>Qo'qon</b>	<b>234,2</b>	<b>115,7</b>	<b>147,4</b>
<b>Quvasoy</b>	<b>58,9</b>	<b>38,4</b>	<b>146,6</b>
<b>Marg'ilon</b>	<b>276,7</b>	<b>184,7</b>	<b>130,1</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Oltiariq</b>	<b>70,0</b>	<b>132,5</b>	<b>180,5</b>
<b>Qo'shtepa</b>	<b>81,6</b>	<b>133,1</b>	<b>162,7</b>
<b>Bag'dod</b>	<b>257,8</b>	<b>101,4</b>	<b>172,0</b>
<b>Buvayda</b>	<b>110,7</b>	<b>187,3</b>	<b>157,1</b>
<b>Beshariq</b>	<b>34,9</b>	<b>69,9</b>	<b>152,3</b>
<b>Quva</b>	<b>65,2</b>	<b>109,7</b>	<b>150,3</b>
<b>Uchko'prik</b>	<b>55,0</b>	<b>119,7</b>	<b>153,3</b>
<b>Rishton</b>	<b>39,7</b>	<b>217,3</b>	<b>154,6</b>
<b>So'x</b>	<b>26,9</b>	<b>103,3</b>	<b>159,7</b>
<b>Toshloq</b>	<b>64,2</b>	<b>138,0</b>	<b>155,4</b>
<b>O'zbekiston</b>	<b>71,7</b>	<b>140,1</b>	<b>151,0</b>
<b>Farg'ona</b>	<b>29,5</b>	<b>78,8</b>	<b>157,3</b>
<b>Dang'ara</b>	<b>75,1</b>	<b>64,2</b>	<b>158,0</b>
<b>Furqat</b>	<b>41,3</b>	<b>65,0</b>	<b>145,0</b>
<b>Yozyovon</b>	<b>56,9</b>	<b>127,1</b>	<b>152,8</b>

\* Viloyat bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **6,1 %**ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-may oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **4,4 %** punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-may oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **3,2 %** punktga kamayib, **65,6 %**ni tashkil etdi.



Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar-may oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga kamayib, **28,3 %**ni tashkil etdi.



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **16,6 %**ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-may oyiga nisbatan **13,3 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **79,9 %** (**10,2 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **3,5 %** (**3,1 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.







## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **5,3 %** punktga kamaydi va **10,2 %**ni tashkil etdi. Qolgan **89,8 %**i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **5,3 %** punktga ko'paydi.

*ulushi, %da*



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Ijr : O'.Umarov  
Tel.: (73) 249-87-26  
(73)-241-98-42